

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

YASHIL IQTISODIYOT PREDMETI VA VAZIFALARI

Hayitov Jamshid Xolboyevich,

SamISI “Raqamli Iqtisodiyot” kafedrasini o’qituvchisi

Bozorboyev Diyorbek Jahongir o’g’li,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti IK -423 guruhi talabasi

+998993440519

Annotatsiya: Ushbu maqolada mavzu mohiyati, uning o’rganilayotgan kursdagi o’rni va ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo’lishingizga yordam beradi va bundan tashqari yashil iqtisodiyotni fan sifatida o’rganish mohiyatini va xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyotni o’rganishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot fani predmeti, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot konsepsiysi, UNEP, tiklanadigan va tiklanmaydigan energiya, organik dehqonchilik, yashil texnologiyalar, ekotizim.

Абстрактный: Данная статья поможет вам иметь четкое представление о сути темы, ее месте и значении в изучаемом курсе, а кроме того, о сути изучения зеленой экономики как науки и вы можете изучить экономику, которая направлена на снижение рисков и дефицита окружающей среды и достижение устойчивого развития без ущерба для окружающей среды.

Ключевые слова: субъект зеленой экономики, устойчивое развитие, концепция зеленой экономики, ЮНЕП, возобновляемые и невозобновляемые источники энергии, органическое сельское хозяйство, зеленые технологии, экосистема.

Abstract: This article will help you get a clear idea of the essence of the topic, its role and importance in the course being studied, and in addition, you can study the essence of studying green economics as a science and an economy aimed at reducing risks and ecological deficits and achieving sustainable development without damaging the environment.

Keywords: subject of green economics, sustainable development, green economy concept, UNEP, renewable and non-renewable energy, organic farming, green technologies, ecosystem.

Yashil iqtisodiyot - bu ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof- muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog’liq, lekin ko‘proq siyosiy jihatdan qo‘llaniladigan yo‘nalishga ega. Yashil stiker va ekologik belgi amaliyoti iste’molchilar oldida atrof-muhitga do’stona munosabat va barqaror rivojlanish ko’rsatkichlari sifatida paydo bo‘ldi. Ko‘pgina sanoat tarmoqlari globallashayotgan iqtisodiyotda yashillashtirish amaliyotini targ‘ib qilish usuli sifatida ushbu standartlarni qabul qila boshlaydi. Barqarorlik

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

standartlari sifatida ham tanilgan bu standartlar sotib olingan mahsulotlar atrof-muhitga va ularni ishlab chiqaruvchi odamlarga zarar yetkazmasligini kafolatlaydigan maxsus qoidalardir. Ushbu standartlar soni yaqinda o'sib bordi va endi ular yangi, yanada yashil iqtisodiyotni qurishda yordam berishi mumkin. Ular o'rmon xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, tog'-kon sanoati yoki baliqchilik kabi iqtisodiy sohalarga e'tibor qaratadi; suv manbalari va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish yoki issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish kabi ekologik omillarga e'tibor qaratish; xodimlarning ijtimoiy himoyasi va huquqlarini qo'llab-quvvatlash; va ishlab chiqarish jarayonlarining muayyan qismlariga uy kiradi.

Yashil iqtisodiyot fan sifatida XX asr oxirida shakillangan bo'lib, iqtisodiyitning tabiiy muhitiga bog'liqligi, uning tarkibiy qismi ekanligi va tabiiy muhit doirasida amal qilishini o'rgatuvchi fan hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi resurslarni tejashga yo'naltirilgan iqtisodiyot, ekologik iqtisodiyot, atrof muhit iqtisodiyoti, yashil siyosat, xalqaro iqtisodiy munosabatlар nazariyasi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, inovatsion iqtisodiyot kabi iqtisodiy fandagi ilmiy g'oyalarni qamrab oladi.

Atrof muhit iqtisodiyoti yoki ekologik iqtisodiyotdan farqli ravishda „Yashil iqtisodiyot” ko'roq amaliy harakterga ega hisoblanadi. „Yashil iqtisidiyot” ilmiy fan sohasi emas, balki ustun daraja real iqtisodiy siyosat, aniq faoliyat sohalari (enargetika, inovatsiya, qishloq xo'jaligi va boshqalar)ga talluqlidir. Ushbu fanni “Yashil iqtisodiyot”ning inglizcha economics (iqtisodiyot nazariyasi yoki environmental economics, ecological economics kabi iqtisodiy fanlar) emas, balki economy (real iqtisodiy faoliyat) so'zları orqali ifodalanishda kuzatish mumkin.

Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi - iqtisodiy o'sish va jamiyatning farovonligini oshirish bilan birga, tabiat va ekologik muhitni himoya qilishdir. Bu quyidagi aniq maqsadlar bilan bog'liq:

1. Barqaror rivojlanishga erishish: Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi, ya'ni tabiiy resurslardan shunday foydalanishni rag'batlantiradi, bu kelajak avlodlar uchun zarar keltirmaydi.

2. Atrof-muhitni himoya qilish: Ekologik zararni kamaytirish, havo va suv ifloslanishini kamaytirish, chiqindilarni kamaytirish va ular bilan bog'liq muammolarni hal qilish orqali atrof-muhutni himoya qilish.

3. Ijtimoiyadolat va tenglikni ta'minlash: Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi shuni talab qiladi, iqtisodiy taraqqiyotning foydalari keng aholi qatlamlariga yetib borishi va ijtimoiy tenglikka erishish mumkin bo'lsin.

4. Energiya tejamkorligini oshirish: Muqobil energiya manbalaridan foydalanish va energiyani samarali ishlatish orqali energiya tejamkorligini oshirish va karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish.

Yashil iqtisodiyotning asosiy vazifalari turli sohalarda ekologik barqarorlikka erishishga qaratilgan. Quyida uning asosiy vazifalarini batafsil ko'rib chiqamiz:

1. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish:Iqtisodiyotda resurslardan oqilona foydalanish yashil iqtisodiyotning muhim vazifasidir. Bu yer, suv, energiya, o'rmon kabi

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

resurslarni tejash, ular bilan bog'liq texnologiyalarni takomillashtirish va kamroq resurs bilan ko'proq mahsulot olishni o'z ichiga oladi.Oqilona foydalanish orqali ortiqcha chiqindilarni kamaytirish, suv va energiya sarfini optimallashtirish mumkin.

2. Chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash:Chiqindilarni qayta ishlash - ishlab chiqarishdan kelib chiqadigan chiqindilarni minimal darajaga yetkazish yoki ularni qayta ishlash orqali iqtisodiy tizimga qaytarish demakdir. Bu muhim vazifa bo'lib, chiqindilarni qayta ishlash orqali ekologik ifloslanishni kamaytirish va xom ashyo yetishmasligini hal qilishga yordam beradi.Bu jarayonda chiqindilardan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish va aholini qayta ishlash madaniyatiga o'rgatish ham muhim hisoblanadi.

3. Ekologik toza texnologiyalardan foydalanish:Yashil iqtisodiyot ekologik xavfsiz texnologiyalarini joriy qilishga katta ahamiyat beradi. Bu texnologiyalar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida tabiatga minimal ta'sir ko'rsatadi.Bu jarayonga quyosh va shamol energiyasidan foydalanish, electrotransport, chiqindilarsiz ishlab chiqarish texnologiyalari va energiya samaradorligini oshiruvchi usullar kiradi.

4. Barqaror iste'mol va ishlab chiqarishni rag'batlantirish:Aholi o'rtasida ekologik mahsulotlarni iste'mol qilishni rivojlantirish va shunday mahsulotlarni ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash yashil iqtisodiyotning asosiy vazifalaridan biridir.Bu jarayonda aholining ekologik madaniyatini oshirish, resurslarni tejashga rag'batlantirish va ekologik toza mahsulotlarni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

5. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va moslashish:Yashil iqtisodiyot iqlim o'zgarishiga olib keluvchi omillarni kamaytirishga va bu o'zgarishlarga moslashishga qaratilgan. Asosan, karbonat angidrid va boshqa zararli gazlarning chiqishini kamaytirish choralar qo'llaniladi.Bu borada energetika, transport, qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida uglerod chiqindilarini kamaytirish usullarini joriy qilish muhim.

Tabiiy resurslarni saqlash va oqilona boshqarish: yer, suv, havo, mineral resurslar kabi tabiiy boyliklardan foydalanishni optimallashtirish. Bu resurslarni tejash, ularni tiklash va ulardan ko'proq samaradorlik bilan foydalanishdir. Ekotizimni muhofaza qilish: Ekotizim xizmatlarini (masalan, havo va suvning tabiiy tozaligini, tuproq unumdoorigini, biologik xilma-xillikni) saqlab qolish orqali, insoniyat uchun ekologik barqaror hayotni ta'minlash.Tiklanmaydigan (yer osti qazilma boyliklari,suv) resurslarni kamaytirib tiklanadigan (havo quyosh, nuri) resurslarga ehtiyojni oshirish kerak. Iqlim o'zgarishining oqibatlarini kamaytirish: Global iqlim o'zgarishi iqtisodiyotga va jamiyatga katta salbiy ta'sir qiladi. Yashil iqtisodiyot ushbu ta'sirlarni yengillashtirish va iqlim o'zgarishiga moslashish choralarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Yashil iqtisodiyot konsepsiysi deyilganda "konepsiyanı", "tushuncha", "nazariya", "qarash" degan manolarni anglatadi.kansepsiyalardan biri „barqaror rivojlanish konsepsiysi” dunyo mamlakatlarining bosh maqsadiga aylanib bormoqda. Ushbu masalaning kulminatsion cho'qqisi 2015 yilda Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan BMT ning iqlim isishiga bag'ishlangan komferensiyada 195 mamlakat tomonidan global isish

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

darajasini +2C da ushlab turish siyosatini qabul qilishi bilan belgilandi.,,Yashil iqtisodiyot” tushunchasi 2008-2009 yillardagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida BMT tizimidagi keng qo'llanila boshladi. Jumladan 2009 yilda UNEP (atrof-muhit bo'yicha dasturi) tomonidan „Yangi yashil kurs”deb nomlangan tahliliy maruza qilindi.

„Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish yo'nalishlari:Tiklanadigan energiya manbalarini o'zgartirish, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, „sof”, „barqaror” yoki „yashil transport”ni rivojlantirish, qishloq xo'jaligida organik dehqonchilikni rivojlantirish, uy-joy kamunal xo'jaligida energiya samaradorligini oshirish, ekotozimni saqlab qolish va boshqaruv samaradorligini oshirish, „yashil texnologiyalar”ni yaratish va sotish bozorlarini rivojlantirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, yashil qitisotiyot vazifasi iqtisodiy barqarorlikni taminlash, ekotizmni muxofaza qilish, tabiy resurslardan samarali foydalanish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish orqali inson va tabiat o'rtasida muvozanatni saqlashda iborat ekan.Yashil iqtisodiyot predmeti esa iqtisodiy faoliyatning ekologik jihatdan samarali modellarini yaratish, tabiy resurslardan samarali foydalanish , chiqindini kamaytirishga yo'naltirilgan texnologiya va siyosatlarni ishlab chiqarishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Green economy: Opportunities and challenges: An international
2. For a Green Economy
3. Transitioning to a Green Economy: Political Economy of Approaches
4. Sustainable Economic Development: Green Economy and Green Growth
5. A New Blueprint for a Green Economy
6. Yashil iqtisodiyot:darslik. Mualiflar: Vaxabov Abdurahim Vasikovich, Xajibakiyev Shuxrat Xo'jayorovich
7. www.review.uz
8. www.kun.uz
9. <https://uz.m.wikipedia.org>
10. books.google.com
11. books.google.co.uz